<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# TEMIRYO'L TRANSPORTI SANOAT KOMPLEKSI KORXONALARIDA IJTIMOY VA MEHNAT MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI



**Kadirova Sharofat Amonovna**

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Inson va jamiyatning rivojlanishida mehnatning tutgan o'rni juda katta. Bu ahamiyat mehnat jarayonida insonlarning ehtiyojini qondirish uchun mo'ljallangan nafaqat moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratilishida, balki ishlovchilarning o'zlari ham rivojlanib yuorishi, ularning ko'nikmaga ega bo'lishi, o'z qobiliyatlari eshigini ochishlari, bilimlarini to'ldirishlari va kengaytirishlarida namoyon bo'ladi. Maqolaning asosiy maqsadi temiryo'l tarmog'i sanoat korxonalarida ijtimoiy mehnat munosabatlarini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratish va uning ahamiyatini belgilovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali tegishli xulosa va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** mehnat faoliyati, ma'naviy sifatlar, paternalizm, hamkorlik, birdamlik, diskriminatsiya.

**Abstract:** The role of labor in the development of man and society is enormous. This value is manifested not only in the creation of material and spiritual goods intended to meet the needs of people in the process of work, but also in the fact that workers themselves develop, acquire skills, open the door to their abilities, replenish and expand their knowledge. The main purpose of the article is to focus on the issues of improving public labor relations at the enterprises of the railway industry and to develop appropriate conclusions and proposals by analyzing indicators that determine its significance.

**Key words:** labor activity, spiritual qualities, paternalism, cooperation, solidarity, discrimination.

**Аннотация:** Роль труда в развитии человека и общества огромна. Это значение проявляется не только в создании материальных и духовных благ, предназначенных для удовлетворения потребностей людей в процессе труда, но и в том, что сами работники развиваются, приобретают навыки, открывают дверь своим способностям, пополняют и расширяют свои знания. Основная цель статьи-сосредоточение внимания на вопросах совершенствования общественных трудовых отношений на предприятиях железнодорожной отрасли и выработка соответствующих выводов и предложений путем анализа показателей, определяющих его значимость.

**Ключевые слова:** трудовая деятельность, духовные качества, патернализм, сотрудничество, солидарность, дискриминация.

## KIRISH

O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish boshidanoq ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot vazifalari bilan bog'liq edi. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish uchun kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish doirasida ijtimoiy-mehnat jarayonlarini tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy va ijtimoiy choralardan kompleks foydalanish bandlik, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy boshqaruv sohasidagi yangi muammolarni hal etishga, temiryo'l tarmog'i xodimlarining mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ushbu jarayon nafaqat me'yoriy-huquqiy baza va iqtisodiy jarayonlarning o'zgarishi, balki zamonaviy qoidalarga muvofiq iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradigan odamlarning ongi va xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar bilan kuzatiladi.

Milliy va xalqaro iqtisodiy maydonda transport xizmatlari bozorini rivojlantirmasdan iqtisodiyotni rivojlantirish va siyosiy aloqalarni shakllantirish mumkin emas. Xususan, temiryo'l transporti boshqa transport turlaridan ishonchiligi, harakatlanish jarayonida xavfsizligi, ob-havo va iqlim sharoitlariga chidamliligi va boshqa sifatlar bilan ajralib turadi.





Temiryo'llar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini, mamlakat va mintaqalarning ichki va tashqi integratsiya aloqalarini ta'minlashda, aholi bandligi va respublikaning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda muhim rol ni bajarishga undaydigan infratuzilmaning bir qismidir.

Respublikada ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan chuqur va keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning asosiy maqsadi xalqning munosib turmush darajasini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahalliy tovarlar va xizmatlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash hisoblanadi.

Ijtimoiy mehnat munosabatlari bozor munosabatlari davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy islohotlar natijasida ishchi kuchining ozod etilishi va mehnat qilishning turli sohalarida uni taqsimoti faollashadi, ishsizlik yuzaga keladi, va shu vaqtning o'zidayoq iqtisodiyotning yangi sharoitida tegishli tayorlov darajasiga hamda mehnat qilish qobiliyatiga ega yangi ishchilarga ehtiyoj o'sadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlash ijtimoiy mehnat munosabatlarini tartibga solish jarayonlari boshqaruvining ilmiy asoslangan siyosatni ishlab chiqish zaruriyatini talab etadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlashga qaratilgan vashu bilan birga uni mustahkamlash borasida yangi ustuvor vazifalar belgilanmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Asosiy vazifalar – makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani jilovlash, tarmoqlarni monopoliyadan chiqarish, davlat tomonidan narxlar belgilanishini tartibga solishni bekor qilish va "yashirin iqtisodiyot"ga barham berish"<sup>[1]</sup>. Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish jarayoni mexanizmini takomillashtirish bilan bevosita uzviy bog'liq bo'lib, bu yirik temiryo'l tarmog'idagi sanoat ishlab chiqarish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish, tashqi va ichki bozorlar uchun sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib berish va sotishda zamonaviy savdo xizmatlarini tashkil qilish hamda ushbu xizmat imkoniyatlaridan samarali foydalanishga katta imkoniyatlarni yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiylashuvi amalga oshgan o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab jamiyat boyligini yaratishda muhim ishtirokchi sifatida qatnashuvchi inson resurslarining samaradorligini belgilovchi ijobiy muloqotlarning ahamiyati xorijlik menejment fani namoyondalarining tadqiqotlari mavzusiga aylangan edi. Bu olimlar ichida E. Meyo, Ch. Barnard, D. Makgregorlarning izlanishlarini alohida ta'kidlagan holda, ularning ijtimoiy-mehnat munosabatlarini takomillashtirishdagi tadqiqotlari umume'tirof etilgan yo'nalishlarda, iqtisodiyotning tadrijiy rivojlanishi kapitalistik xo'jalik yuritish tamoyillariga amal qilgan holda uzluksizlik namoyon etgan neoklassik ishlab chiqarish usullari ustuvorligini nazarda tutganligini qayd etish mumkin. Mamlakatimiz olimlaridan Sh. Zaynutdinov, I. Ubaydullayeva, Z. Xudoyberdiyev, Q. Abduraxmonov, D. Ortiqova, N. Zokirova<sup>1</sup> va boshqalarning mehnat iqtisodiyoti nazariyasi rivojiga qo'shgan hissalarini alohida e'tirof etish mumkin, albatta. Ammo bu tadqiqotlarda mehnat iqtisodiyotining umume'tirof etilgan jihatlariga e'tibor qaratilgan, xolos. Shuning uchun ham, temiryo'l transporti korxonalarida ijtimoiy-mehnat jarayonlarini milliy o'ziga xoslikni inobatga olgan holda takomillashtirish masalalarini tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada ilmiy abstraksiyalash, empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI


Mehnat faoliyati jarayonida nafaqat tovarlar ishlab chiqariladi, xizmatlar ko'rsatiladi, madaniy boyliklar yaratiladi, balki ularning navbatdagi qoniqish hissi talablari bilan yangi ehtiyojlar namoyon bo'ladi (1-rasm).

Mehnat jarayonida insonlar o'zaro bir-biri bilan aloqa qilib, ma'lum bir ijtimoiy-mehnat munosabatlariga kirishadilar. Bu munosabatlar individ (shaxs) va guruhlarining ijtimoiy ahamiyati, roli, o'zni, jamiyatdagi mavqeyini aniqlashga ko'mak beradi. Ular ishchi va usta, rahbar va bo'ysunuvchi guruh, ma'lum bir ishchi-xodimlar guruhi, mehnat tashkilotining hech bir a'zosi bunday munosabatlar tashqarisida, bir-biriga nisbatan o'zaro majburiyatlaridan tashqarida, o'zaro harakat tashqarisida yashay olmaydi (2-rasm).

1 Xudoyberdiyev Z. Ya. va b. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: "ILM ZIYO", 2017y. –344 b.; Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "FAN" nashriyot davlat korxonasi, Toshkent, 2019, 595 b., Артыкова Д. А. Формирование занятости населения в Республике Узбекистан. – Т.: Фан, 2005; Abdurahmonov Q. X., Zokirova N. Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Fan va texnologiya", 2013y. –536 b.



1-rasm: Inson va jamiyatning rivojlanishida mehnatning ahamiyati



2-rasm: "O'zbekiston temiryo'llari" AJ korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlari

Respublikada hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri nafaqat barcha hohlovchilarni ish bilan ta'minlash, balki optimal, ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bilan bandlikni shakllantirish, barchaga, respublika fuqarosiga mehnat faoliyat turi va shaklini erkin tanlashning haqiqiy imkoniyatini berish uchun zaruriy shart-sharoitlarni ham yaratish hisoblanadi.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlari "O'zbekiston temir yullari" AJ korxonalarida mehnat faoliyati bilan bog'langan jarayonlarda ishchi-xodimlar va ijtimoiy guruhlarining o'zaro harakatlarini iqtisodiy, ruhiy va huquqiy aspektlarini tavsiflaydi.



Zamonaviy iqtisodiyot uchun “O‘zbekiston temir yullari” AJ tizimida ko‘riladigan munosabatlarning eng muhim subyektlari kompaniya korxonalarining yollanma ishchilari, O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi, ish beruvchi – “O‘TY” kompaniyasi rahbariyati, davlat hisoblanadi.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlari predmetlari insonlar o‘z faoliyatining turli bosqichlarida erishishga intiladigan maqsadlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy-mehnat munosabatlarining predmetlari ko‘p jihatdan muammolarning asosiy bloklari, ya‘ni bandlik, mehnatni tashkil etish va unga haq to‘lash bilan belgilanadi. Bandlik insonlarni yashash vositalari bilan ta‘minlash, shuningdek, individual qobiliyatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi [5]. Mehnatni tashkil etish va unga haq to‘lash o‘z navbatida mehnat sharoitlari, ishlab chiqarish jamoalaridagi munosabatlarning xarakteri, ishchi kuchi xarajatlarini qoplash, mehnat faoliyati jarayonida inson rivojlaniishi uchun imkoniyatlar bilan bog‘liq.

Ijtimoiy va mehnat munosabatlarining turlari mehnat faoliyati jarayonida munosabatlarning psixologik, axloqiy va huquqiy shakllarini tavsiflaydi. Tashkiliy shakllarga ko‘ra, ijtimoiy va mehnat munosabatlarining quyidagi turlari ajratiladi: paternalizm, sheriklik, raqobat, birdamlik, subsidiarlik, diskriminatsiya (kamsitish) va nizolar (1-jadval).

1-jadval: Ijtimoiy-mehnat munosabatlari asosiy turlarining tavsifi

Ijtimoiy-mehnat munosabatlarining turlari	Tavsifi
Paternalizm	davlat yoki korxona rahbariyati tomonidan ijtimoiy-mehnat munosabatlarini sezilarli darajada tartibga solish hisoblanadi. Bu davlatning aholi ehtiyojlari yoki korxona ma‘muriyatining o‘z xodimlari uchun “otalik g‘amxo‘rligi” niqobi ostida amalga oshiriladi.
Sheriklik	Hamkorlik eng ko‘p batafsil huquqiy hujjatlar tizimi bilan tavsiflanadi, unga ko‘ra xodimlar, tadbirkorlar va davlat iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda sheriklar hisoblanadi.
Raqobat	insonlar yoki jamoalar o‘rtasidagi raqobat yuqori samarali, yuqri natijali faoliyatga erishishga hissa qo‘shishi mumkin
Birdamlik	Birdamlik bir guruh odamlarning umumiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda umumiy mas‘uliyat va o‘zaro yordamni nazarda tutadi
Subsidiarlik	Subsidiarlik insonning o‘z maqsadlariga erishish va ijtimoiy-mehnat muammolarini hal qilishdagi harakatlari uchun shaxsiy javobgarlikka intilishini anglatadi.
Diskriminatsiya	Ijtimoiy-mehnat munosabatlari subyektlarining huquqlarini o‘zboshimchalik bilan, noqonuniy ravishda cheklash.
Nizo	Ijtimoiy-mehnat munosabatlaridagi qarama-qarshiliklarning haddan tashqari ifodasidir. Mehnat nizolarining eng aniq shakllari mehnat nizolaridir.


Ijtimoiy va mehnat munosabatlarida imkoniyatlar tengligi qonunchilik tizimi bilan ta‘minlanadi. O‘zbekiston uchun bu, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining aholi bandligi to‘g‘risidagi qonunidir. O‘zbekiston Xalqaro tashkilotning (XMT) mehnat va bandlik sohasida teng imkoniyatlar to‘g‘risidagi konvensiyalarini ratifikatsiya qildi.

“Quyuv-mexanika zavodi” AJ – O‘zbekistondagi yuqori professional kadrlar va ilg‘or yuqori samarali texnologik uskunalarga ega yetakchi sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi. Korxonada xalqaro standartlarga muvofiq ISO 9001 sifat menejmenti tizimi joriy etilgan. So‘nggi yillarda bu yerda ishchi-xodimlarga har tomonlama qulay sharoitlar yaratib berish, iqtidorli mutaxassislarni jamlash hamda sexlarga zamonaviy dastgohlarni joriy etish yo‘li bilan yangi turdagi vagonlarni sifatli qurishga, ularni ehtiyot qismlarini shu yerning o‘zida ishlab chiqarishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, bundan 5 yil avval ishlab chiqarilayotgan vagonlar ehtiyot qismlarining 80 foizi xorijdan chet el valyutalariga import qilinardi, mahalliy lashtirish dasturining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani bois bugungi kunga kelib ularning 70 foizi korxonani o‘zida, ushbu korxona mutaxassislari tomonidan ishlab chiqarilmoqda va millionlab xorij valyutasi tejab qolinishiga erishilyapti. Ayni vaqtda korxonada yigirmata sex mavjud bo‘lib, 400 turdan ortiq butlovchi qismlar ishlab chiqariladi.

Korxonada 6 turdagi yangi yuk vagonlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu yangi vagonlarning eski turdagi vagonlardan yuqori mustahkamligi, yuk ko‘tarish imkoniyati va sifati bilan farqlanadi. Shuningdek, e‘tiborli jihati tezyurur poezdlar harakatiga moslashtirilgan, yuklarni tushirish va yuklarni ortish jarayonida ham afzalliklarga ega bo‘lib, texnologik vaqtni qisqartirishga erishilgan.

Ushbu korxonaga Germaniya, Sloveniya, Belarus, Rossiya, Ukraina davlatlaridan zamonaviy texnikalar va quyuv dastgohlari keltirilib, ulardan unumli foydalanilmoqda.

Quyida Toshkent quyuv-mexanika zavodida 2019-2023-yillar oralig‘ida faoliyat yuritgan ishchi-xodimlar sonini o‘zgarish dinamikasini ko‘rishimiz mumkin (3-rasm).




3-rasm: Toshkent quyuv-mexanika zavodi umumiy xodimlar soni dinamikasi, kishi<sup>2</sup>

2020-yilda korxonada jami xodimlar soni 1494 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ularning soni 3,27%ga, 2022-yilda esa 2020-yilga nisbatan 7%ga qisqarganini ko'rishimiz mumkin. Joriy yilda turli xil ma'lumotga ega bo'lgan ishchi-xodimlarning soni 1489 nafarni tashkil etdi, jumladan ularning 338 nafari oliy ma'lumotli, 423 nafari o'rta-maxsus, 353 nafari o'rta-texnik, 291 nafari o'rta va 84 nafari esa to'liqsiz o'rta ma'lumotga ega.

So'ngi 5 yil ichida sohada muntazam ish bilan bo'lganlar soni 1,1 barobarga oshdi. 2019-yilda 1413 nafar ishchi xodimlar bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 1489 nafarni tashkil etdi.

Toshkent quyuv-mexanika zavodi umumiy xodimlar tarkibida boshqaruv xodimlari, mutaxassislar, texnik xodimlar, ishlab chiqarish xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar toifasi ajratib ko'rsatiladi (4-rasm).



4-rasm: Toshkent quyuv mexanika zavodi umumiy xodimlar tarkibi dinamikasi, kishi<sup>3</sup>

Toshkent quyuv mexanika zavodi umumiy xodimlar tarkibi dinamikasi o'zgarish tendentsiyasiga ega bo'lib, 2020-yilda boshqaruv xodimlarining soni 33 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda esa 179 nafarni tashkil etmoqda, bu 2020-yilga nisbatan 5,4 barobardan ziyod ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ishlab chiqarish xodimlarining soni esa 2023-yilda 2020-yilga nisbatan 25%ga kamaygan. Umumiy xodimlar tarkibida mutaxassislar soni ham kamayish tendentsiyasiga ega bo'lib, 2023-yilda 122 nafarni tashkil etmoqda, bu 2020-yilga nisbatan 38,1%ga kamdir.


<sup>2</sup> Tokent Quyuv mexanika zavodi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>3</sup> Tokent Quyuv mexanika zavodi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi





Yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan kadrlar salohiyati bilan uzviy bog'liq. Toshkent quyuv-mexanika zavodi ishchi-xodimlarining ma'lumot tarkibini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Korxonada ma'lumot tarkibi oliy, o'rta maxsus, o'rta texnik ma'lumotga ega xodimlar sifatida alohida ajratib ko'rsatiladi (5-rasm).




5-rasm: Toshkent quyuv-mexanika zavodi ishchi-xodimlarining ma'lumot tarkibi dinamikasi<sup>4</sup>

Ishchi-xodimlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib, korxonada har rejalashtiriladigan joriy davr uchun vakant ish o'rinlari e'lon qilinadi. 2020-yilda 92 ta vakant o'rinlari, 2021, 2022, 2023-yillarda mos ravishda 92, 46 va 87 ta vakant ish o'rinlari mavjud bo'lgan.

Sanoat korxonalarida faoliyat yuritadigan ishchi-xodimlarni to'liq bandligini tashkil etish bilan bir qatorda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-mehnat munosabatlari tizimining muhim bo'lagi hisoblanadi. Bundan korxonaning samarali faoliyati, yuqori unumdorlik, ijtimoiy barqarorlik, xodimlarning mehnatga moyilligi va turmush darajasi bog'liq bo'ladi.

Korxonalarda mehnatga haq to'lash tizimi bilan birga rag'batlantirish tizimini ham to'g'ri yo'lga qo'yilishi ijtimoiy-mehnat munosabatlari mustahkamlashga xizmat qiladi.

Toshkent quyuv mexanika zavodida ko'p yillik temiryo'l sohasida vijdonli mehnati uchun turli davlat mukofotlari, "Faxriy temiryo'lchi", "Kasb a'lochisi" kabi mukofotlar bilan taqdirlash masalalariga ham e'tibor qaratiladi (6-rasm).



6-rasm: Toshkent quyuv mexanika zavodi mukofatlash turlari dinamikasi<sup>5</sup>

4 Tokent Quyuv mexanika zavodi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

5 Tokent Quyuv mexanika zavodi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2018-2022-yillar oralig'ida 2 nafar xodim davlat mukofoti "Shuhrat medali" bilan, 3 nafar xodim "Faxriy temiryo'lchi" faxriy unvoni hamda 2 nafar xodim "Kasb a'lochisi" faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan.

Aytish joizki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy-mehnat munosabatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Xalqaro shartnomalar va O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida mustahkamlab qo'yilgan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarining ustuvorligi prinsipi bilan belgilanadi. Bu tamoyil O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonuni va boshqa bir qator qonun hujjatlarida yanada rivojlantirildi va aniq belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida xalqaro shartnomalar, Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari va O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari o'rtasidagi munosabatlar masalasi 10-modda bilan belgilanadi, unda: "Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida xodimlar uchun O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonunchiligiga yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi". Xuddi shunday qoida "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ham mavjud (3-qism, 1-modda).

Yuqoridagi me'yorlarga ko'ra, mehnat qonunchiligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyalariga to'liq mos kelishi kerak.

Shu bilan birga, agar u yoki bu sabablarga ko'ra mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari haligacha O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari yoki XMT tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalari talablariga muvofiqlashtirilmaganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekistonga nisbatan mazkur xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidalari bevosita qo'llaniladi va milliy qonunchilikdan ustuvor hisoblanadi.

Ijtimoiy-mehnat sohasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi (1992 y., yangi tahrir – 2023-y.)
- Ta'lim to'g'risida qonun (1992 y., yangi tahrir – 2020-y.)
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (1995 y., yangi tahrir – 2022-y.)
- Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida Qonun (1992-y.)
- O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi (1995, 1998 y., yangi tahrir – 2023-y.)
- Vazirlar Mahkamasining Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi (1996-y.)
- O'zbekiston Respublikasi Temiryo'l transporti to'g'risida Qonuni (1999-y.)
- O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida Qonuni (1996-y., yangi tahrir – 2014-y.)

Ushbu qonun hujjatlarining barchasi mehnat qonunchiligining amal qilishi uchun zarur huquqiy muhitni yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy va mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi barcha normalar Mehnat kodeksi va Mehnat to'g'risidagi qonunda jamlangan: bandlik va ishsizlik sohasidagi ijtimoiy kafolatlar, bandlik, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va boshqalar.

Toshent quyuv mexanika korxonasida ijtimoiy mehnat munosabatlarini mustahkamlash va takomillashtirishda quyidagi asosiy sohalar, bloklar va komponentlarga:

- ijtimoiy-madaniy majmua (Sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan, madaniyat va boshq.);
- mehnat bozori;
- bandlik va ishsizlik;
- samarali mehnatga bo'lgan moyillik (ehtiyoj, qiziqish, motiv, rag'bat, ish haqi, mehnatga haq to'lash, mukofot va boshq.);
- ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta'minot;
- ijtimoiy sug'urta;
- ijtimoiy hamkorlik;
- aholining turmush darajasini barqarorlashtirish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini topshirish va boshqalar e'tibor qaratish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 13.01.1992 yildagi 510-XII-son O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" Qonun.
2. 28.10.2022-yildagi "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ-798-son Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi №19 (7521), 2020-yil 25-yanvar.
4. Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, –2019. 592 b.
5. Abdurahmonova G. Q. Inson resurslarini boshqarish. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, –2021. 696 b.
6. Кибанов А. Я., Митрофанова Е. А., Ивановская Л. В. Социально-трудовые отношения, рынок труда и занятость персонала. – М.: Проспект, 2021 г. – 64 с.
7. Самофалов М. В., Резенченков В. Ю. Мотивация трудовой деятельности. – М.: 2004 г., 281 с.
8. Mehnat bozorining rivojlanishi sharoitida intellektual kapitalga sarflanadigan investitsiyalarni baholash. AB Irmatova – Iqtisodiyot va ta'lim, 2016.
9. Рахманбаева, Р. (2022). Проблемы и перспективы развития цифровой экономики. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(6), 265-270.
10. Рахманбаева, Р. (2022). Проблемы и перспективы развития цифровой экономики. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(6), 265-270.
11. Неъматов, А. И., & Рахманбаева, Р. А. (2021). Инновационное развитие предприятий железнодорожного транспорта в Узбекистане. Science and Education, 2(2), 164-167.
12. Kadirova Sharofat Amonovna, & Xolboyev Abbas Olim O'Gli (2022). Sanoat ishlab chiqarish korxonalarida moddiy resurslarni rejalashtirish va ulardan tejamli foydalanish. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1 (1), 33-37. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-33-37.
13. Кадилова Ш. А., & Бустанов, Х. Г. (2022). Роль менеджмента в развитии предпринимательства в современных рыночных условиях. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1(1), 1-4.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.